ISLOM MOLIYASINING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

Davlatova Sitorabonu Uyg'un qizi
Katta o'qituvchi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
E-mail: d.sitora98@mail.ru
ORCID: 0009-0008-5021-1814
https://doi.org/10.5281/zenodo.21970663

Annotatsiya

Inson mavjudligi va o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi Shariatning asosiy tamoyillari islomiy moliya sohasida ham qo'llaniladi. Shariat ayrim faoliyatlarni qat'iyan taqiqlangan (harom), boshqalarini esa majburiy (farz) deb belgilaydi. Ushbu ikki chegaraning o'rtasida keng ko'lamdagi joiz (halol) iqtisodiy va moliyaviy faoliyatlar mavjud. Islom moliyasining huquqiy-me'yoriy asoslari Qur'oni karim, Sunnat, ijmo', qiyos hamda zamonaviy shariat standartlariga tayangan holda shakllanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham islom moliyasini rivojlantirishga qaratilgan huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada islom moliyasining huquqiy-me'yoriy asoslari O'zbekiston misolida tahlil qilinib, amaldagi qonunchilik, Markaziy bankning tartibga solish mexanizmlari, xalqaro standartlarning qo'llanilishi hamda milliy moliya tizimiga joriy etish istiqbollari baholanadi.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, shariat, huquqiy-me'yoriy asoslar, O'zbekiston, AAOIFI, IFSB, Markaziy bank, islom bankchiligi, shariat nazorati, islomiy moliyalashtirish, qonunchilik, prudensial tartibga solish.

ПРАВОВЫЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСНОВЫ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ

Аннотация

Основополагающие принципы шариата, регулирующие жизнь человека и общественные отношения, лежат и в основе исламских финансов. Шариат запрещает определённые виды деятельности (харам), предписывает обязательные действия (фард) и допускает широкий спектр разрешённой (халяль) экономической деятельности. Правовые и нормативные основы исламских финансов формируются на базе Корана, Сунны, иджмы, кыяса, а также современных стандартов шариатского регулирования. В последние годы в Республике Узбекистан реализуются масштабные реформы, направленные на развитие исламских финансов. В статье проводится анализ правовых и нормативных основ исламских финансов на примере Узбекистана, рассматриваются действующее законодательство, механизмы регулирования Центрального банка, применение международных стандартов и перспективы внедрения исламских финансов в национальную финансовую систему.

Ключевые слова: исламские финансы, шариат, правовые основы, нормативное регулирование, Узбекистан, AAOIFI, IFSB, Центральный банк, исламский банкинг, шариатский надзор, исламское финансирование, пруденциальное регулирование.

LEGAL AND REGULATORY FRAMEWORK OF ISLAMIC FINANCE

Abstract


The fundamental principles of Shariah governing human life and social relations also constitute the foundation of Islamic finance. Shariah prohibits certain activities (haram), prescribes mandatory obligations (fard), and permits a broad range of lawful (halal)

economic and financial transactions. The legal and regulatory framework of Islamic finance is derived from the Holy Qur'an, the Sunnah, Ijma, Qiyas, and contemporary Shariah standards. In recent years, Uzbekistan has undertaken significant legal reforms to facilitate the development of Islamic finance. This article analyzes the legal and regulatory framework of Islamic finance in the context of Uzbekistan by examining the existing legislation, the regulatory role of the Central Bank, the application of international standards, and the prospects for integrating Islamic finance into the national financial system.

Keywords: Islamic finance, Shariah, legal framework, regulatory framework, Uzbekistan, AAOIFI, IFSB, Central Bank, Islamic banking, Shariah governance, Islamic financing, prudential regulation.

Kirish. Inson mavjudligi va o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi Shariatning asosiy tamoyillari islomiy moliya sohasida ham qo‘llaniladi. Shariat ba’zi faoliyatlarni qat’iyan taqiqlangan (Harom), boshqalarini esa majburiy (Farz) deb belgilaydi. Ushbu ikki chegaraning o‘rtasida esa keng ko‘lamdagi joiz (Halol) faoliyatlar mavjud. Viktoriia Stoikaning “Islomiy bankchilikni milliy bank sektoriga integratsiya qilish: xorijiy tajriba” asariga ko‘ra, musulmon mamlakatlarida bank boshqaruvi qoidalari Shariat qonunlariga asoslanadi. Ya’ni, bu islom jamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatlarini boshqarishga oid qoidalar va qonunlar majmuasidir. Shariat qonunlari, shuningdek, axloqqa zid bitimlar tuzilishini taqiqlaydi hamda ijtimoiy adolatni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu adolat risk va daromadlarni taqsimlash, shuningdek, ijtimoiy investitsiyalarni amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

Shariatning tamoyillari va qoidalari turli manbalardan olinadi. Shariatning asosiy manbalari – Qur’oni Karim va Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning Sunnatidir. Qur’oni Karim – Alloh taoloning oxirgi vahiyidir, Sunnat esa Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) ning so‘zlari, amallari hamda o‘z davrida mavjud bo‘lgan amaliyotlarni tasdiqlashini ifodalaydi. Shariatning ikkilamchi manbalariga Ijmo’ (ittifoq) va Qiyos (qiyosiy xulosa chiqarish) kiradi. Ular Qur’oni Karim va Sunnatdan kelib chiqadigan tamoyillarga asoslanadi. Ikkilamchi manbalardan shar’iy hukmlar chiqarish jarayoni esa Ijtihod (ilmiy izlanish / sa’y-harakat) deb ataladi. Umuman olganda, islomiy moliya sohasi va ayniqsa Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti (AAOIFI) Shariat standartlari - turli fiqh maktablariga mansub musulmon olimlarining zamonaviy moliyaviy tizimning tijorat va moliyaviy muammolarini tahlil qilish hamda ularga shariatga muvofiq yechimlar taklif etish yo‘lida amalga oshirgan ilmiy ijtihodlarining yorqin namunalaridir.



1-rasm. Shariat huquqi manbalari[1].

[1] Muallif ishlanmasi.

Islom moliyasida barqarorlik va yagona yondashuvni ta’minlash maqsadida quyidagi xalqaro tashkilotlar tomonidan me’yoriy bazalar ishlab chiqilgan. Jahon Islom bank-moliya tizimidagi eng nufuzli xalqaro tashkilotlar va ularning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

1-jadval.

Jahon Islom bank-moliya tizimidagi eng nufuzli xalqaro tashkilotlar[2]

Nomi	O’zbekcha nomi (tarjima)	Asosiy faoliyati	Bosh ofisi joylashgan shahar/mamlakat	Tuzilgan yili
IsDB Islamic Development Bank	Islom taraqqiyot banki	Ushbu xalqaro tashkilotga a’zo bo‘lgan musulmon davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni islom moliyasi tamoyillariga muvofiq ravishda moliyalashtirish, islom moliya muassasalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoya kiritish, islom iqtisodiyoti va bank ishi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, vaqf jamg‘armalarini moliyalashtirish, favqulodda holatlarda a’zo davlatlarga moliyaviy yordam berish, maslahat xizmatlari ko‘rsatish va h.k.	Jidda shahri (Saudiya Arabistoni)	1975
AAOIFI The Accounting and Auditing for Islamic Financial Institutions	Islom moliya muassasalari uchun buxgalteriya hisobi va auditi tashkiloti	Islom moliya muassasalari uchun buxgalteriya hisobi va auditi bo‘yicha shariat me’yorlarini ishlab chiqish.	Manama shahri (Bahrayn)	1990
IIFM International Islamic Financial Market	Xalqaro islom moliya bozori	Moliyaviy mahsulotlarni (ya’ni shartnomalar, bitimlar va boshqa moliyaviy vositalar) Shariatga muvofiq tarzda ishlab chiqish va ularni tasdiqlash bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilot.	Manama shahri (Bahrayn)	2002

[2] Islom moliyasi kanali. *www.islommoliyasi.uz.*

IFSB Islamic Financial Services Board	Islom moliyasi xizmatlari kengashi	Islom bank-moliya tarmog‘ining ishonchli va barqaror ishlashini ta’minlashga qaratilgan xalqaro nazorat me’yorlari ishlab chiqish, nazorat qiluvchi idora va tashkilotlar hamda boshqa qiziquvchi tomonlar uchun ilmiy-amaliy anjumanlar va seminarlar o‘tkazish.	Kuala-Lumpur shahri (Malayziya)	2003
IILM International Islamic Liquidity Management Corporation	Likvidlikni boshqarish xalqaro islom korporatsiyasi	Shariatga muvofiq likvidlikni boshqarishga oid samarali moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqish.	Kuala-Lumpur shahri (Malayziya)	2010

Mamlakatlarning islomiy bankchilikni milliy moliya sektoriga integratsiya qilish borasidagi tajribasi, eng avvalo, tegishli normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, zarur infratuzilmani shakllantirish, aholining xabardorligini oshirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish hamda investor mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonda islomiy moliya faoliyatining huquqiy asoslari quyidagi normativ hujjatlar orqali shakllanmoqda:

– Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasining 2022 yil 20-aprelda qabul qilingan qonuni;

– Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko’rsatish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 2024-yil 26-iyuldagi qarori.

– O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi 2026-yil 27 martdagi O‘RQ–1126 sonli O‘zbekiston Respublikasi qonuni.

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko’rsatish tartibi to’g’risidagi nizom va an’anaviy bank qonunchiligi taqqoslamasi.

2-jadval.

Umumiy huquqiy yondashuv taqqoslamasi[3]

Mezon	**An’anaviy bank/kredit huquqi**	**Islomiy moliyalashtirish nizomi**
Huquqiy tabiat	“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun 3-moddasida: Bank – bu pul mablag‘larini jalb qilish va ularni qaytarish, to‘lovlilik hamda muddatlilik shartlari asosida joylashtirish, shuningdek bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan kredit tashkilotidir. 2-moddasiga ko’ra: Bank faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Qonun hamda	Nizom mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko‘rsatish tartibini belgilaydi. 2-bandda bu xizmatlar sifatida islomiy ijara, mudoraba, murobaha, mushoraka, salam sanab o‘tilgan.

[3] Muallif ishlanmasi

	boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.	
Asosiy model	O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 744-moddasiga ko‘ra Kredit shartnomasi bo‘yicha bank yoki boshqa kredit tashkiloti qarz oluvchiga pul mablag‘larini shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda beradi, qarz oluvchi esa olingan pul mablag‘larini qaytarish hamda ular uchun foiz to‘lash majburiyatini oladi.	1-bandda har bir shartnoma kredit emas, balki real bitim sifatida tariflangan: murobaha - tovarni nasiyaga sotish, ijara - mol-mulkni vaqtincha egalik va foydalanishga topshirish, mushoraka - sherikchilik, mudoraba - tijorat faoliyatiga mablag‘ ajratish.
Axloqiy-cheklovlar	“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq Banklar o‘z faoliyatini qonunchilik hujjatlariga muvofiq, bank sirini saqlagan holda va mijozlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilish asosida amalga oshiradi.	Nizomning 5-bandiga ko‘ra, mikromoliya tashkilotiga qonunchilikda taqiqlangan va maxsus kengash ko‘rsatmalariga zid bo‘lgan tovarlar savdosi bilan shug‘ullanish hamda faoliyat turlarini moliyalashtirish taqiqlanadi.
Foiz (ribo)	Fuqarolik kodeksiga ko’ra, qarz oluvchi kredit uchun foiz to‘lashi shart.	Nizom foizli kredit modelini qabul qilmaydi. 28-bandda to‘lov muddatini uzaytirganlik uchun qo‘shimcha haq taqiqlanadi, 29-bandda vositachilik haqlari taqiqlanadi, 74 va 85-bandlarda foyda qat’iy summa shaklida emas, ulush asosida bo‘lishi shartligi ko‘rsatilgan.

Islomiy moliyalashtirish tizimi huquqiy jihatdan kredit munosabatlariga emas, balki savdo, ijara va sheriklik asosidagi real bitimlarga tayanadi. Islomiy moliyalashtirish Nizomida moliyalashtirishning asosiy shakllari sifatida murobaha, ijara, mushoraka, mudoraba va salam operatsiyalari belgilangan. An’anaviy bank huquqida esa moliyalashtirishning asosiy shartnoma turi Fuqarolik kodeksining 744-moddasida nazarda tutilgan kredit shartnomasi hisoblanadi. Mazkur modelda bank qarz oluvchiga pul mablag‘larini beradi va qarz oluvchi ularni foiz bilan qaytarish majburiyatini oladi. Shunday qilib, ikki tizim o‘rtasidagi asosiy huquqiy farq moliyalashtirishning predmeti va daromad olish mexanizmida, shuningdek, risklarni taqsimlashda namoyon bo‘ladi.

3-jadval.

An’anaviy bank va Islomiy mikromoliyalashtirish muassasalari nazorat va boshqaruv mexanizmi taqqoslamasi[4]

Mezon	**An’anaviy bank/kredit huquqi**	**Islomiy moliyalashtirish nizomi**
Ichki nazorat	“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun 32-moddaga ko’ra: Bankning boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:	3-bandga ko‘ra, islomiy moliyalashtirish xizmatlari ko‘rsatilishi uchun maxsus kengash tashkil etilishi lozim. 11-bandda

[4] Muallif ishlanmasi

	aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi; kuzatuv kengashi; ijro etuvchi organ.	kengash kamida 5 kishidan iborat bo‘lishi belgilangan.
Shariat nazorati	An’anaviy bank qonunchiligida shariat nazorati institutlari mavjud emas.	4-bandga ko‘ra, xizmatlar qonunchilik hujjatlari talablari hamda maxsus kengash ko‘rsatmalariga rioya qilgan holda ko‘rsatilishi kerak. 16-bandda kengashning asosiy vazifasi shariat va qonunchilikka muvofiqlikni ta’minlash ekani ko‘rsatilgan. 15-bandga ko‘ra, maxsus kengashning xulosa va ko‘rsatmalari mikromoliya tashkilotining ijro etuvchi organi uchun majburiy hisoblanadi**.**
Markaziy bank bilan munosabat	“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonun, 5-moddada Markaziy bank bank tizimining barqarorligini ta’minlash, pul-kredit siyosatini yuritish hamda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish vakolatiga ega. 12-moddasida Markaziy bank banklar faoliyati ustidan prudensial nazoratni amalga oshiradi. 7-moddasida Markaziy bank banklar uchun majburiy bo‘lgan iqtisodiy me’yorlarni belgilaydi.	3-bandda maxsus kengash tuzilgani yoki tarkibi o‘zgargani haqida 10 ish kuni ichida Markaziy bankka axborot taqdim etilishi shartligi belgilangan. Bundan tashqari nizom talablariga mos keluvchi tarkibdan iborat bo’lgan maxsus kengashni autsorsing asosida jalb qilish mumkinligi belgilangan.

Islomiy moliyalashtirish tizimida moliyaviy operatsiyalar shariat tamoyillariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida maxsus kengash (Shariah kengashi) tashkil etilishi majburiy hisoblanadi. Nizomga ko‘ra, mazkur kengashning xulosa va ko‘rsatmalari mikromoliya tashkilotining ijro etuvchi organlari uchun majburiy hisoblanadi. An’anaviy bank tizimida esa bank faoliyati ustidan nazorat asosan kuzatuv kengashi, ichki audit va Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Bu tizimda diniy yoki axloqiy nazorat instituti mavjud emas. Natijada islomiy moliya tizimi nazorat mexanizmi jihatidan ikki pog‘onali - moliyaviy va shariat nazoratiga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qonunga ko‘ra:

– islomiy bank faoliyati uchun alohida litsenziya turi joriy etilganligi;

– banklar to‘liq islomiy faoliyat yuritishi yoki an’anaviy xizmatlar bilan birga islomiy xizmatlarni ham ko‘rsatishi mumkin bo‘lishi;

– Markaziy bank va ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi banklarda Islomiy moliya kengashlari tashkil etilishi kerakligi ko‘rsatilgan.

4-jadval.
Kredit (qarz) va moliyalashtirish tushunchasi huquqiy asosda taqqoslamasi[5]

Mezon	**An'anaviy bank/kredit huquqi**	**Islomiy moliyalashtirish nizomi**
Moliyalashtirish tartibi	Kredit berish – bankning asosiy faoliyati. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, 5-moddasida Banklar pul mablag'larini kredit sifatida joylashtirish, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa bank xizmatlarini ko'rsatish huquqiga ega.	1-bandda Nizomdagi institutlar pulni foizga berish emas, balki savdo, ijara, sheriklik va foyda taqsimoti orqali moliyalashtirishdir.
Shartnoma predmeti	Fuqarolik kodeksi, 744-moddasida Kredit shartnomasi bo'yicha bank qarz oluvchiga pul mablag'larini beradi.	1, 17, 33, 58, 78-bandlarga muvofiq Murobahada predmet - tovar, ijarada - mol-mulk, salamda - kelajakda yetkaziladigan tovar, mushorakada - pul yoki aktiv, mudorabada - tijorat faoliyatiga ajratilgan kapital.
Bank/MMT roli	Fuqarolik kodeksida **q**arz shartnomasi bo'yicha qarz beruvchi pul yoki ashyolarni beradi, qarz oluvchi esa ularni qaytarish majburiyatini oladi.	20, 39, 78-bandlarda MMT kreditor emas, balki bitim ishtirokchisi: murobahada tovarni sotib oladi va sotadi, ijarada mulk egasi bo'ladi, mushorakada sherik sifatida ishtirok etadi.
Qayta moliyalashtirish taqiqi	Ruxsat etilgan	31-bandga ko'ra, amaldagi shartnoma bo'yicha nasiya savdo obyektini ayni shu mijozga yangi nasiya savdo shartnomasi asosida qayta sotish (qayta moliyalashtirish) mumkin emas.

An'anaviy bank tizimida moliyalashtirish kredit shartnomasi orqali amalga oshiriladi va uning predmeti pul mablag'lari hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 744-moddasiga ko'ra, bank qarz oluvchiga pul beradi va qarz oluvchi uni foiz bilan qaytaradi. Islomiy moliyalashtirishda esa kredit instituti mavjud emas, balki moliyalashtirish savdo, ijara yoki sheriklik asosida amalga oshiriladi. Bu tizimda bank kreditor emas, balki iqtisodiy bitimning to'liq ishtirokchisiga aylanadi. Shu sababli islomiy moliya modeli huquqiy jihatdan kredit munosabatlaridan farqli ravishda real aktivlar va iqtisodiy operatsiyalar asosida quriladi.

[5] Muallif ishlanmasi

Xulosa. O‘zbekistonda islom moliyasining huquqiy-me’yoriy asoslarini shakllantirish so‘nggi yillarda moliya sektorini diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning muhim yo‘nalishiga aylandi. Amalga oshirilayotgan qonunchilik islohotlari, Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilayotgan tartibga solish mexanizmlari hamda AAOIFI va IFSB standartlaridan foydalanish milliy islom moliyasi infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur huquqiy asosni yaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, islom moliyasini samarali joriy etish uchun maxsus qonunchilikni yanada takomillashtirish, shariat nazorati institutlarini rivojlantirish, xalqaro standartlarni milliy amaliyotga bosqichma-bosqich integratsiya qilish, malakali kadrlar tayyorlash hamda islomiy moliyaviy mahsulotlar ko‘lamini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) (2023) *Shariah Standards*. Manama: AAOIFI.
2. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) (2022) *Governance Standards for Islamic Financial Institutions*. Manama: AAOIFI.
3. Astana Financial Services Authority (AFSA) (2024) *Islamic Finance Framework*. Astana: Astana International Financial Centre.
4. Islamic Financial Services Board (IFSB) (2024) *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2024*. Kuala Lumpur: IFSB.
5. O‘zbekiston Respublikasi (2025) *“Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ–1058-son Qonuni*. Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasi (2026) *“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ–1126-son Qonuni*. Toshkent.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024) *Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko’rsatish tartibi to’g’risidagi nizom*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
8. Usmani, M.T. (2002) *An Introduction to Islamic Finance*. The Hague: Kluwer Law International.
9. Ayub, M. (2007) *Understanding Islamic Finance*. Chichester: John Wiley & Sons.
10. Obaidullah, M. (2005) *Islamic Financial Services*. Jeddah: Islamic Economics Research Center, King Abdulaziz University.
11. Hassan, M.K. and Lewis, M.K. (eds.) (2007) *Handbook of Islamic Banking*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
12. *Islom moliyasi bo‘yicha qonunchilik, tahliliy maqolalar va amaliy sharhlar*. https://islommoliyasi.uz